e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/1y9zq774

A. X. BOBOXO‘JAYEV MONOGRAFIYASIDA INGLIZ-SOVET MUNOSABATLARI VA O‘RTA OSIYO MASALASI (1919–1924): TARIXSHUNOSLIK TAHLILI

Abdullayev Botir Jabbor o‘g‘li
Termiz davlat universiteti, tayanch doktorant.
e-mail: abdullayevbotir24061995@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0003-7364-1554

Annotatsiya.
Maqolada A. X. Boboxo‘jayevning 1959-yilda nashr etilgan monografiyasi tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Asarning tuzilishi, manbaviy bazasi, Britaniyaning sovet davlatini de-fakto va de-yure tan olishi davridagi siyosatining talqini hamda sovet davri mafkuraviy cheklovlari yoritilib, kitobning tarix ta’limidagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: tarixshunoslik, A. X. Boboxo‘jayev, ingliz-sovet munosabatlari, de-fakto, de-yure, O‘rta Osiyo, O‘rta Sharq, manba tanqidi, sovet tarixshunosligi, tarix ta’limi.

АНГЛО-СОВЕТСКИЕ ОТНОШЕНИЯ И СРЕДНЕАЗИАТСКИЙ ВОПРОС В МОНОГРАФИИ А. Х. БАБАХОДЖАЕВА (1919–1924): ИСТОРИОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Абдуллаев Ботир Жаббор угли
Термезский государственный университет, докторант (PhD).

Аннотация.
В статье проводится историографический анализ монографии А. Х. Бабаходжаева, опубликованной в 1959 году. Рассматриваются структура произведения, его источниковая база, интерпретация политики Великобритании в период признания советского государства де-факто и де-юре, а также идеологические ограничения советского периода. Раскрывается значение данной монографии для исторического образования.

Ключевые слова: историография, А. Х. Бабаходжаев, англо-советские отношения, де-факто, де-юре, Средняя Азия, Средний Восток, критика источников, советская историография, историческое образование.

ANGLO-SOVIET RELATIONS AND THE CENTRAL ASIAN QUESTION IN A. KH. BABAKHODJAEV’S MONOGRAPH (1919–1924): A HISTORIOGRAPHICAL ANALYSIS

Abdullayev Botir Jabbor o‘g‘li
Termez State University, PhD Doctoral Student.

Abstract.
The article presents a historiographical analysis of A. Kh. Babakhodjaev’s monograph published in 1959. It examines the structure of the work, its source base, the interpretation of British policy during the period of de facto and de jure recognition of the Soviet state, and the ideological limitations of the Soviet era. The study also highlights the significance of the monograph for history education.

Keywords: historiography, A. Kh. Babakhodjaev, Anglo-Soviet relations, de facto, de jure, Central Asia, Middle East, source criticism, Soviet historiography, history education.

Kirish. Birinchi jahon urushi va Rossiyadagi 1917-yilgi inqilobdan keyingi xalqaro munosabatlar tizimida sovet hokimiyatining tan olinishi masalasi 1920-yillar boshidagi eng murakkab siyosiy muammolardan biri bo‘ldi. Bu jarayonda Buyuk Britaniya alohida o‘rin tutdi. Bir tomondan, u Rossiya bozori va savdo-iqtisodiy aloqalardan manfaatdor edi, ikkinchi tomondan, Hindistondagi mustamlakachilik manfaatlarini O‘rta Osiyo, Eron va Afg‘oniston orqali yetib kelishi mumkin bo‘lgan sovet ta’siridan himoya qilishga intildi. Shu sababli Moskva va London o‘rtasidagi munosabatlar Turkiston, Buxoro va Xorazm kabi hududlardagi ichki siyosiy vaziyat bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlandi [2]. Mazkur raqobat xorijiy tarixshunoslikda «Buyuk o‘yin»ning inqilobdan keyingi bosqichi sifatida ham o‘rganilgan [3].

O‘zbekiston tarixshunosligida bu mavzuga bag‘ishlangan yirik asarlardan biri A. X. Boboxo‘jayevning 1959-yilda Toshkentda O‘zSSR Fanlar akademiyasi nashriyotida chop etilgan «Sovet davlatini de-fakto va de-yure tanish davrida O‘rta Osiyo va O‘rta Sharqda ingliz antisovet siyosatining barbod bo‘lishi (1919–1924-yillar)» monografiyasidir [1]. Kitob Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tomonidan tayyorlangan, uning mas’ul muharriri O‘zSSR FA muxbir a’zosi M. I. Yo‘ldoshev bo‘lgan [1]. Muallifning o‘zi ko‘rsatishicha, ushbu asar 1917–1920-yillardagi voqealarni qamrab olgan va 1957-yilda rus tilida nashr etilgan birinchi kitobning davomi hisoblanadi; o‘zbek tilidagi nashrga qo‘shimchalar kiritilgan, ayrim boblar qayta ishlangan va yangi boblar qo‘shilgan [1, 12-b.].

Mavzuning dolzarbligi bir necha jihatdan belgilanadi. Birinchidan, monografiya sovet davri tarixshunosligining muayyan yo‘nalishini, ya’ni xalqaro munosabatlar tarixini O‘rta Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq nuqtayi nazaridan yoritishga

ISSN 3060-5059 (Online)

urinishni yaqqol namoyon qiladi. Ikkinchidan, kitobda keng ko‘lamli arxiv hujjatlari, davriy matbuot, xotiranomalar va shaxsiy suhbat materiallaridan foydalanilgan bo‘lib, bu materiallarning manbaviy qimmati bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Uchinchidan, bunday asarlarga zamonaviy manbashunoslik talablari asosida yondashish, ya’ni mafkuraviy qatlam bilan ishonchli ma’lumotlarni bir-biridan ajratish tarixiy tafakkur va tanqidiy o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Nihoyat, tadqiqot A. X. Boboxo‘jayevning ilmiy merosini o‘rganish nuqtayi nazaridan ham zarur.

Maqolaning maqsadi A. X. Boboxo‘jayev monografiyasini tarixshunoslik va manbashunoslik jihatidan tahlil qilish, uning ilmiy yutuqlari hamda cheklovlarini aniqlash va asardan tarix ta’limida foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: asarning tuzilishi va davrlashtirish tamoyilini aniqlash; muallif foydalangan manbalar guruhlarini tasniflash; asosiy ilmiy talqinlarni tahlil qilish; asarning kuchli va zaif tomonlarini zamonaviy tadqiqotlar bilan qiyoslab baholash; kitob materiallarini tarix darslarida qo‘llash yo‘llarini ko‘rsatish.

METODLAR

Tadqiqotda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillari asos qilib olindi. Monografiya matni, uning izohlar apparati, adabiyotlar ro‘yxati va «Muhim voqealar xronikasi» bo‘limi kontent-tahlil usuli bilan o‘rganildi. Manbalar guruhlarini aniqlashda manba tanqidi (ichki va tashqi tanqid), muallif keltirgan dalillarni qiyoslashda esa qiyosiy-tarixiy usul qo‘llanildi. Asarning davrlashtirish tamoyilini ko‘rsatish uchun xronologik va muammoviy yondashuvlar uyg‘unlashtirildi.

Tahlil davomida kitobdagi «imperialist», «kontrrevolyutsion», «bosmachilik» kabi sovet davriga xos atamalar muallifning o‘z talqini sifatida tegishli iqtiboslar bilan keltirildi va ularning zamonaviy ilmiy baholari alohida ko‘rsatildi. Xorijiy tadqiqotlar [2–5] qiyosiy ma’lumot sifatida jalb etildi. Maqolada asosiy manba sifatida monografiyaning o‘zbek tilidagi 1959-yilgi nashri [1] olingan; iqtiboslar kirill yozuvidan lotin yozuviga o‘girilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. MONOGRAFIYANING TUZILISHI VA DAVRLASHTIRISH TAMOYILI

Asar «Muallifdan» va «Manbalar va adabiyotlarga qisqacha obzor» qismlaridan iborat kirish, yetti bob, xulosa, «Muhim voqealar xronikasi», izohlar hamda adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan [1]. Boblarning nomlanishi muallif qo‘llagan davrlashtirish tamoyilini ko‘rsatadi: Britaniyaning sovet davlatini 1921-yilda de-fakto va 1924-yilda de-yure tan olishi voqealar tahlilidagi asosiy burilish nuqtalari sifatida olingan. Boblar mazmuni 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Monografiyaning tuzilishi (muallif tahlili asosida)

Bo‘lim	**Asosiy mazmuni**
I bob	Turkistonda chet el intervensiyasining tor-mor etilishi; Antanta yurishlari davrida sovet hokimiyatini mustahkamlash uchun kurash.
II bob	Turkistonda interventlar mag‘lubiyatining O‘rta Sharq xalqlari uchun ahamiyati (Afg‘oniston, Eron va boshqa mamlakatlar misolida).
III bob	Britaniyaning sovet davlatini de-fakto tanishi davrida (1921) O‘rta Osiyo va O‘rta Sharqdagi ingliz antisovet siyosati; 1921 yilgi ingliz-sovet savdo shartnomasi.
IV bob	Yangi antisovet intervensiyasi rejalari; Povolje ocharchiligidan foydalanishga urinishlar.
V bob	Genuya va Gaaga konferensiyalari davrida ingliz antisovet siyosati; Anvar posho harakati.
VI bob	Lozanna konferensiyasi va Kerzon ultimatumi davrida ingliz siyosatiga qarshi kurash; Salim posho harakati.
VII bob	Sovet davlatini de-yure tanish davrida ingliz siyosatining barbod bo‘lishi; 1924 yilgi ingliz-sovet shartnomasi; Eron va Afg‘oniston.
Xulosa	Asosiy xulosalar, shu jumladan 1924 yildagi milliy-hududiy chegaralanishning baholanishi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, asar tuzilishi diplomatik voqealar (konferensiyalar, shartnomalar, ultimatumlar) va Markaziy Osiyo hamda qo‘shni mamlakatlardagi hodisalar o‘rtasidagi doimiy bog‘liqlikni ko‘rsatishga qaratilgan. Bu yondashuv sovet tarixshunosligida odatiy bo‘lgan «markaz» (Moskva, London) va «chekka» (Turkiston, Buxoro, Xorazm) o‘rtasidagi bo‘linishni qisman yengib, ikkala qatlamni yagona jarayon sifatida talqin etishga urinishdir.

2. MANBA BAZASI VA MUALLIFNING MANBASHUNOSLIK YONDASHUVI

Muallif manbalar tizimini «Manbalar va adabiyotlarga qisqacha obzor» bo‘limida bayon etgan. Uning ko‘rsatishicha, monografiya uchun asosiy manbalar V. I. Lenin asarlari, Kommunistik partiya syezdlarining hujjatlari, partiya va sovet hukumatining qarorlari hamda yetakchi arboblarning maqola va nutqlari bo‘lgan [1, 12–13-b.]. Bugungi ilmiy nuqtayi nazardan, bu guruh, avvalo, siyosiy-mafkuraviy yo‘riqnoma xarakteriga ega bo‘lib, voqealarni baholash mezonlarini belgilagan. Shu bois uni voqelikni tasvirlovchi manba emas, balki davrning rasmiy qarashlarini ifodalovchi hujjatlar majmuasi sifatida baholash o‘rinli.

Ikkinchi guruhni nashr etilgan diplomatik hujjatlar tashkil qiladi. Muallif RSFSR Tashqi ishlar xalq komissarligining maxsus nashrlariga, jumladan, 1921–1927-yillardagi ingliz-sovet munosabatlari, sovet-eron munosabatlari, Genuya va Gaaga konferensiyalari materiallari hamda milliy-mustamlaka masalalariga oid to‘plamlarga tayanadi [1, 14–15-b.]. Bunday nashrlar voqealar xronologiyasini aniqlashda ishonchli asos bo‘lib xizmat qiladi, biroq ular sovet diplomatiyasining o‘z nuqtayi nazaridan kelib chiqib tanlab nashr etilganini unutmaslik kerak.

Uchinchi guruhni arxiv hujjatlari tashkil etadi. Muallif asarni yozishda «ko‘p qismi hali o‘rganilmagan, matbuotda e’lon qilinmagan arxiv hujjatlaridan» foydalanganini alohida ta’kidlaydi [1, 15-b.]. U keltirgan misollar orasida Buyuk Britaniya Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti bilan Qizil Armiyaning 13-korpusi o‘rtasidagi yozishmalar, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati bilan qo‘shni Sharq davlatlari o‘rtasidagi diplomatik yozishmalar hamda 1921-yilda Povoljeda yuz bergan ocharchilik davrida Turkiston, Buxoro va Xiva aholisining yordam harakatiga oid ma’lumotlar bor [1, 15-b.]. Kitob oxiridagi izohlar apparatida asosan O‘zSSR Oktyabr inqilobi markaziy davlat arxivi fondlari va Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalari ko‘rsatilgan. Bu holat asarning mahalliy arxiv materiallariga tayanganini ko‘rsatadi; shu bilan birga, izohlarda Britaniya arxivlariga murojaat qilinganiga oid ma’lumot kuzatilmadi.

To‘rtinchi guruhni davriy matbuot, xorijiy tarixiy adabiyot, xotiranomalar va qo‘lyozmalar tashkil qiladi. Muallifning metodik yondashuvi alohida e’tiborga loyiq: u «dushmanni o‘z quroli bilan urish» tamoyilidan foydalanib, ingliz va amerikalik siyosatchilarning, xususan, Lloyd Jorjning xotiralarini sovet davlatiga qarshi siyosatning mazmunini ochib berishda dalil sifatida keltiradi [1, 17-b.]. Manba tanqidi nuqtayi nazaridan, bu yondashuv ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomondan, rahbarning o‘z bayonotlaridan olingan dalil keyinchalik inkor etish qiyin bo‘lgan ishonchli material hisoblanadi; ikkinchi tomondan, xotiranomalar odatda muallifning o‘z siyosatini oqlash maqsadida yozilganini hisobga olmaslik xatoga olib kelishi mumkin.

Beshinchi, ehtimol, eng o‘ziga xos guruh — muallifning 1958-yil bahori va yozida Afg‘onistonga qilgan ilmiy safari davomida to‘plagan og‘zaki guvohliklaridir. Muallif Afg‘oniston xalqining 1919-yilgi mustaqillik uchun urushida ishtirok etgan marshallar Shoh Mahmudxon G‘oziy va Shoh Valixon G‘oziy bilan suhbatlashgani hamda Afg‘onistonning Sovet Rossiyasidagi birinchi elchisi sifatida ta’riflangan, o‘sha paytda davlat vaziri bo‘lgan Mirza Muhammadxon Yaftali bergan ma’lumotlardan foydalangani haqida yozadi [1, 16-b.]. Adabiyotlar ro‘yxatida bu suhbatlarning yozma javoblari 1958-yil aprel oyida Kobulda berilgan qo‘lyozma hujjatlar sifatida qayd etilgan. Bunday guvohliklar sovet-afg‘on munosabatlari tarixiga oid noyob materiallar hisoblanadi. Shu bilan birga, ularni sovet olimiga berilgan, siyosiy vaziyat ta’sirida shakllangan og‘zaki xotiralar sifatida tanqidiy baholash zarur.

3. ASOSIY TALQINLAR: «IKKI ANGLIYA» SXEMASI VA TASHQI OMILNING O‘RNI

Monografiyaning markaziy g‘oyasi shundan iboratki, Britaniya rahbariyati sovet davlatiga nisbatan bir xil siyosat yuritmagan va uning ichida kamida ikki oqim o‘zaro kurashgan. Muallif bu fikrni Lloyd Jorj atrofidagi savdo-sanoat doiralarining manfaatlari bilan harbiy-reaksion guruh (Cherchill, Kerzon) qarashlarini qarama-qarshi qo‘yish orqali asoslaydi. U Lloyd Jorjning 1920-yil 20-fevralda umumiy palatada aytgan, Rossiyani «qurol kuchi bilan tiklay olmaganimiz, bu ishni savdo yordami bilan bajarishimiz»ga ishonchi komilligi haqidagi so‘zlarini keltiradi va Britaniyaning iqtisodiy inqiroz sharoitida Rossiya bozoriga muhtojligini ta’kidlaydi [1, 122–123-b.]. Ayni paytda muallif ingliz mehnatkashlari, jamoat arboblari va «Rossiyadan qo‘lingni tort» shiori ostida harakat qilgan tashkilotlarning sovet davlatini qo‘llab-quvvatlaganini alohida ko‘rsatadi [1, 123-b.].

Bu sxema xorijiy tadqiqotlar bilan ma’lum darajada hamohangdir. 1921-yil mart oyida imzolangan ingliz-sovet savdo shartnomasi Britaniyadagi iqtisodiy zarurat va ichki siyosiy kurash kesishmasida vujudga kelganligi tadqiqotlarda ham qayd etiladi [2], [5]. Shu bois muallifning «iqtisodiy manfaat va siyosiy tazyiq» birligi haqidagi xulosasini asosli deb hisoblash mumkin. Biroq «ikki Angliya» sxemasi sinfiy tamoyil asosida sodda talqin qilinganida, Britaniya siyosatidagi shaxsiy raqobat, partiyaviy hisob-kitoblar va diplomatik an’analar kabi omillar yetarlicha ochilmay qoladi.

Sovet davlatini tan olish sabablarini muallif 1924-yilgi voqealar misolida ham izohlaydi. U SSSR Tashqi ishlar xalq komissarligi hisobotidagi «ittifoqchilar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning kuchayishi», Britaniyada ishsizlar sonining o‘sishi va iqtisodiy inqirozning chuqurlashishi kabi omillarni sanab o‘tadi, 1923-yil dekabrdagi saylovlarda konservatorlarning mag‘lubiyati va 1924-yil yanvarda Britaniya tarixida birinchi marta leyboristlar hukumatining tuzilishini keltiradi [1, 254-b.]. Lloyd Jorjning 1924-yildagi «Fransiya Ruhrni egallagan zahotiyoq Rossiyani tan olish kerak edi» degan fikri ham shu mantiqqa kiradi [1, 254-b.]. Muallif ko‘rsatgan sabablar majmuasi — iqtisodiy inqiroz, ishsizlik, ittifoqchilar o‘rtasidagi ziddiyatlar va ichki siyosiy almashinuv — xorijiy adabiyotdagi baholarga ham yaqin [2].

4. MINTAQAVIY KESIM: O‘RTA OSIYO VA O‘RTA SHARQ

Asarning eng muhim yangiliklaridan biri — O‘rta Osiyodagi voqealarni qo‘shni davlatlardagi jarayonlar bilan birgalikda ko‘rib chiqishidir. Kirish qismida muallif o‘zidan oldingi sovet tadqiqotlarining uchta kamchiligini sanaydi: ularda sovet davlati ichki hayotidagi o‘zgarishlar yetarlicha hisobga olinmagan; 1921–1924-yillarda O‘rta Osiyodagi ingliz antisovet siyosati e’tibordan chetda qolgan, hatto Anvar posho (1922) va Salim posho (1923) «avantyuralari» haqida bir og‘iz ham gapirilmagan; O‘rta Sharqdagi ingliz siyosati tadqiqot obyekti sifatida olinmagan [1, 14-b.]. Shu tariqa kitob mintaqaviy bo‘shliqni to‘ldirishni asosiy vazifa qilib qo‘yadi.

Afg‘oniston masalasida muallif 1919-yildagi mustaqillik urushi va uning Hindistondagi milliy-ozodlik harakati bilan bog‘liqligini ikkinchi bobda yoritadi [1]. Keyingi bobda sovet-afg‘on do‘stligining shakllanishi hamda 1921-yil yanvar boshida Genri Dobbs boshchiligidagi Britaniya missiyasining Kobulga kelib, rus-afg‘on shartnomasi o‘rniga o‘z loyihasini taklif etishi bilan bog‘liq voqealarni yoritadi [1, 121–154-b.]. Mazkur bobda Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Afg‘oniston bilan diplomatik aloqalari ham tilga olinadi. Muallif fikricha, Afg‘oniston inglizlar uchun kelgusidagi mustamlaka va sovet O‘rta Osiyosiga yurish uchun platsdarm sifatida ahamiyatli bo‘lgani sababli, ular sovet-afg‘on munosabatlarini keskinlashtirishga uringanlar [1, 121–154-b.]. Shuningdek, Buxoro amirining Sharqiy Buxorodan qochishi chog‘ida Qashqardagi ingliz general-konsuli Etherton unga yordam berishga ko‘rsatma olgani haqidagi lavha ham keltiriladi [1, 121–154-b.]. 1924-yildagi Xost qo‘zg‘oloni va shu yil iyulda Kobulda chaqirilgan Jirga haqidagi ma’lumotlar esa Afg‘onistondagi ichki siyosiy ziddiyatlar bilan tashqi omillarning kesishuvini ko‘rsatishga urinishdir [1, 264-b.].

Eron va Turkiya masalalarida muallif 1919-yilgi ingliz-eron shartnomasining bekor qilinishi, 1921-yilgi sovet-eron

shartnomasi, 1924-yildagi shayx Xazal qo‘zg‘oloni va Anglo-Eron neft kompaniyasi manfaatlari hamda Lozanna konferensiyasida bo‘g‘ozlar masalasiga oid sovet taklifi va lord Kerzon boshchiligidagi ingliz delegatsiyasining qarashlarini tahlil qiladi [1, 216, 258-b.]. Muallifga ko‘ra, inglizlar Eronni «Misr – Falastin – Transiordaniya – Iroq – Eron – Hindiston» zanjirining bo‘g‘ini va antisovet platsdarmiga aylantirishga intilgan [1, 258-b.]. Bu geosiyosiy tavsif Britaniyaning mintaqadagi strategik manfaatlariga oid xorijiy tadqiqotlardagi umumiy manzara bilan mos keladi [3], ammo nisbatlar va niyatlarni baholashda muallifning mafkuraviy yo‘nalishi sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

5. ICHKI QARAMA-QARSHILIK VA «BOSMACHILIK» TALQINI

Monografiyaning munozarali qismi — O‘rta Osiyodagi qurolli qarshilik harakatining talqinidir. Muallifga ko‘ra, 1922-yilda Anvar posho o‘zini «davlat boshlig‘i» sifatida tan olishni talab qilib, sovet hukumatiga ultimatum topshirgan va bu harakat Britaniya himoyasi ostida «yagona O‘rta Osiyo davlati» barpo etish dasturiga kirgan [1, 202-b.]. 1923-yil 18-fevralda Salim posho 500–600 kishi bilan Qo‘lob hududiga kelib, mahalliy guruhlar bilan birlashgani, o‘zini O‘rta Osiyodagi barcha qurolli guruhlarning bosh qo‘mondoni deb e’lon qilgani bayon etiladi [1, 234-b.]. 1924-yil yanvarida Junaidxon guruhlarining Xivani qamal qilishi va Qizil Armiya bo‘linmalari tomonidan tor-mor etilishi tasvirlanadi [1, 244-b.].

Kitobda keltirilgan statistik ma’lumotlar tadqiqotchi uchun alohida qiziqish uyg‘otadi. Muallif Xorazmda qurolli guruhlar soni 1923-yil yanvaridagi 945 kishidan 1924-yil yanvarida 476 kishiga, Buxoro Xalq Sovet Respublikasida esa 1923-yil oktyabridagi 2095 kishidan 1924-yil aprel boshida 900 kishiga kamayganini yozadi [1, 244, 270-b.]. Shuningdek, Turkiston Respublikasida paxta maydoni 1922-yildagi 2 ming desyatinadan 1923-yilda 152 ming desyatinaga, 1924-yilda esa 300 ming desyatinaga o‘sgani keltiriladi [1, 270-b.]. Bu raqamlar iqtisodiy tiklanish dinamikasini ko‘rsatsa-da, ularning rasmiy hisobotlarga asoslanganini va qiyosiy tekshiruvdan o‘tkazilmaganini hisobga olib, ulardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish talab etiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda qurolli qarshilik harakati ko‘p qatlamli hodisa sifatida o‘rganiladi: unda mahalliy aholining sovet siyosatiga, jumladan, yer-suv islohoti va rekvizitsiyalarga munosabati, turli yo‘lboshchilarning shaxsiy va siyosiy maqsadlari hamda tashqi aloqalar bir-biri bilan kesishadi [4]. A. X. Boboxo‘jayev esa harakatni asosan tashqi qo‘llab-quvvatlash va mahalliy «ekspluatator» qatlamlarning manfaatlari bilan izohlaydi: kirish qismida u harakat tashkilotchilari boylar, ruhoniylar va amaldorlar ekani oldingi adabiyotlarda to‘g‘ri qayd etilganini, ammo bu qatlamlar tashqi dushmanlarning rag‘batisiz va yordamisiz qurolli kurashni uzoq davom ettira olmasligi e’tibordan chetda qolganini yozadi [1, 14-b.]. Britaniyaning ayrim shaxslar bilan aloqalari haqidagi dalillar, albatta, tarixiy ahamiyatga ega; ammo ularni butun harakatni izohlovchi yagona omil darajasiga ko‘tarish ilmiy jihatdan yetarli asosga ega emas. Bunday xulosa uchun Britaniya arxivlari hujjatlari bilan qiyosiy tekshiruv zarur.

6. ILMIY QIYMATI VA CHEKLOVLARI

Monografiyaning ilmiy yutuqlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin. Birinchidan, asar London, Moskva, Toshkent, Buxoro, Xiva, Kobul va Tehron o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yagona xronologik doirada tasvirlaydi. Ikkinchidan, kitobga O‘zbekiston arxiv hujjatlari, qo‘lyozmalar va Afg‘onistonda to‘plangan guvohliklar kiritilgan. Uchinchidan, «Muhim voqealar xronikasi» va izohlar apparati keyingi tadqiqotchilar uchun tayanch yo‘naltiruvchi vazifasini o‘taydi. To‘rtinchidan, asar mahalliy hududlarning xalqaro siyosatdagi o‘rnini ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lib, bu yondashuv keyingi davr tadqiqotlarida ham dolzarb bo‘lib qolmoqda [3], [4].

Shu bilan birga, asarning bir qator cheklovlari bor. Birinchisi — mafkuraviy til va sinfiy talqin ustunligi: sovet davlatining har bir qadami tinchliksevar siyosat, uning raqiblarining har bir qadami esa «imperialistik» niyat sifatida baholanadi. Ikkinchisi — izohlar apparatida Britaniya arxiv hujjatlarining yo‘qligi: Britaniya siyosatining motivlari asosan sovet hujjatlari, matbuoti va ingliz siyosatchilarining ochiq bayonotlari orqali tiklanadi. Uchinchisi — mahalliy ishtirokchilarning (jadidlar, milliy kommunistlar, qishloq jamoalari, diniy rahbarlar) o‘z manfaatlari va tanlovlari yetarli darajada ko‘rsatilmagan; zamonaviy tadqiqotlar esa aynan shu mahalliy dinamikani birinchi o‘ringa qo‘yadi [4]. To‘rtinchisi — xulosada g‘alabaviy ohang ustun bo‘lib, 1924-yildagi ingliz-sovet shartnomalari bilan «yangi qamalning barbod bo‘lishi» qat’iy xulosa sifatida beriladi [1, 276-b.]. Vaholanki, o‘sha yilning avgustida imzolangan shartnomalar Britaniyada hukumat almashgach kuchga kirmadi va ingliz-sovet munosabatlari keyingi yillarda ham beqaror bo‘lib qoldi; demak, «barbod bo‘lish» tezisi diplomatik jarayonning to‘liq tugaganini emas, balki muayyan bosqichini tavsiflaydi.

Xulosa qismida 1924-yildagi milliy-hududiy chegaralanish ham bir ma’noli ijobiy voqea sifatida baholanadi: yangi respublikalarning o‘z milliy davlatlariga birlashish imkoniyatiga ega bo‘lgani va ittifoqning mustahkamlangani ta’kidlanadi [1, 276–277-b.]. Bugungi ilmiy adabiyotda bu jarayon murakkab, ko‘p omilli va munozarali hodisa sifatida tahlil qilinadi [4]. Demak, kitobdagi mazkur baho davrning rasmiy tarixiy yo‘nalishini aks ettiradi va uni mustaqil tadqiqot xulosasi sifatida emas, balki tarixshunoslik fakti sifatida qabul qilish to‘g‘ri bo‘ladi.

7. TARIX TA’LIMIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Monografiya matni tarix ta’limida, ayniqsa, yuqori sinf o‘quvchilari, kollej va oliy ta’lim muassasalari talabalari bilan ishlashda «manba bilan ishlash» ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun boy material beradi. Bunda kitobdan olingan parchalar tayyor haqiqat sifatida emas, balki tahlil obyekti sifatida taqdim etilishi lozim. Masalan, o‘quvchilarga Lloyd Jorjning 1920-yil 20-fevraldagi so‘zlari keltirilgan parcha beriladi va ulardan muallif qanday xulosa chiqargani, bu xulosa qanday dalillarga tayanishi va qo‘shimcha qanday manbalar zarurligi so‘raladi.

Amaliy mashg‘ulotlarda uch bosqichli topshiriqdan foydalanish samarali bo‘lishi mumkin. Birinchi bosqichda talabalar matndan faktlar (sanalar, shaxslar, raqamlar) va baholovchi ifodalarni ajratadilar. Ikkinchi bosqichda faktlar boshqa manbalar, xususan, sovet davridan keyingi tadqiqotlar bilan qiyoslanadi. Uchinchi bosqichda asardagi talqinning muayyan davr siyosiy-mafkuraviy sharoitidagi o‘rni muhokama qilinadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ma’lumotlarni tekshirish va dalillarga asoslangan fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda tarixiy

ISSN 3060-5059 (Online)

xotirani shakllantirishda biryoqlama qarashlarning oldini oladi.

Shuningdek, monografiyadagi O‘rta Osiyo va qo‘shni mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalar haqidagi ma’lumotlar mintaqaviy tarixni o‘rganishda fanlararo bog‘liqlikni (tarix, geografiya, xalqaro munosabatlar) ta’minlash imkonini beradi. O‘qituvchi bu materiallardan loyiha ishlari, munozaralar va qiyosiy tahlil topshiriqlarida foydalanishi mumkin.

XULOSA

A. X. Boboxo‘jayevning 1959-yilda nashr etilgan monografiyasi 1919–1924-yillardagi ingliz-sovet munosabatlarini O‘rta Osiyo va O‘rta Sharq voqealari bilan bog‘lab o‘rganishga urinishning yorqin namunasidir. Asarning tuzilishi Britaniyaning sovet davlatini de-fakto (1921) va de-yure (1924) tan olishi atrofida qurilgan; manba bazasi nashr etilgan diplomatik hujjatlar, arxiv materiallari, matbuot, xotiranomalar va muallifning Afg‘onistonda to‘plagan og‘zaki guvohliklarini o‘z ichiga oladi.

Tahlil natijasida asarning ilmiy kuchi mintaqaviy qamrovi, arxiv va og‘zaki materiallardan foydalanishi hamda xronologiyasining batafsilligida ekani aniqlandi. Uning cheklovlari esa sovet davriga xos mafkuraviy til, Britaniya siyosatining asosan sovet manbalari orqali tiklanishi, mahalliy ishtirokchilarning faolligi yetarlicha yoritilmagani hamda voqealarni g‘alabaviy tarzda yakunlovchi xulosalar bilan bog‘liq. Shu bois kitobdan foydalanishda uni ham tarixiy manba, ham tarixshunoslik fakti sifatida tanqidiy o‘qish lozim.

Keyingi tadqiqotlarda monografiyadagi dalillarni Britaniya va boshqa xorijiy arxiv hujjatlari bilan qiyoslash, mahalliy ishtirokchilarning siyosiy tanlovlarini alohida o‘rganish va asardagi materiallarni tarix ta’limida manba tanqidi topshiriqlari sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boboxo‘jayev A. X. Sovet davlatini de-fakto va de-yure tanish davrida O‘rta Osiyo va O‘rta Sharqda ingliz antisovet siyosatining barbod bo‘lishi (1919–1924-yillar). – Toshkent: O‘zSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1959.
2.Carr E. H. The Bolshevik Revolution, 1917–1923. — Vol. 3. — London: Macmillan, 1953.
URL: https://library.iire.org/node/44355. — Kutubxona katalogi. MOUSEION
3.Hopkirk P. Setting the East Ablaze: On Secret Service in Bolshevik Asia. — London: John Murray, 1984.
URL: Kutubxona katalogidagi qayd.
Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. — Ithaca; London: Cornell University Press, 2015.URL: Cornell universiteti repozitoriysi.Ochiq to‘liq matn — PDF. ecommons.cornell.edu
4.Ullman R. H. Anglo-Soviet Relations, 1917–1921. — Vol. 3: The Anglo-Soviet Accord. — Princeton: Princeton University Press, 1972. URL: Nashriyot sahifasi.